



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




№3(1)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 144 sahifa,
2-mart, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

O'zbek oilalarida ona-bola munosabatlari va ularning oilaviy emotsional muhitni shakllantirishdagi ahamiyati.....	18
<i>Abdullayeva Dilbar Ubaydullayevna</i>	
O'quvchi yoshlarda sog'lom turmush tarzini shakllantirish – ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida	22
<i>Mirzayeva Faroxat Odiljonovna</i>	
Raqamli muhit ta'sirida bolalar psixikasidagi transformatsiya jarayonlari.....	30
<i>Abdullayeva Sh. H.</i>	
Turli yosh davrlaridagi shaxslarda o'zini o'zi faollashtirish xususiyatlarining tafovutlanishi	33
<i>Qurbonboyev Azimbek Nazirboy o'g'li</i>	
Bolalarni maktab ta'limiga intellektual tayyorlash va vitagen tajribasini rivojlantirishga metodik yondashuvlar.....	37
<i>Abdullayeva Feruza Shavkatovna</i>	
Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni steam asosida o'qitishning interfaol metodlari	42
<i>Aliqarshiyeva Durdona Sharofiddin qizi</i>	
O'simliklar guruhlari mavzusini o'quvchilarga tushuntirishda interfaol metod va vositalardan foydalanishning samaradorligi.....	49
<i>Dehqonboyev Muhammad To'liqin o'g'li</i>	
Kichik maktab yoshidagi shaxsda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni rivojlantirishning pedagogik shartlari	55
<i>Jo'rayev Avazbek Umar o'g'li</i>	
Matematika o'qitish jarayonida o'quvchilarning mantiqiy kompetentligini shakllantirish	59
<i>Kalandarova Maxliyo Aslonovna</i>	
Raqamli ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarni pedagogik madaniyatini rivojlantirishda raqamli ta'lim imkoniyatlaridan samarali foydalanish.....	63
<i>Kamalova Dilrom Olimjon qizi</i>	
Maktabgacha ta'limni rivojlantirish – kelajak avlod kamolotiga qaratilgan strategik islohot.....	68
<i>Kamolova Gavhar Akbarovna</i>	
Axloqiy qadriyatlar asosida milliy ertaklardan foydalanish texnologiyasi.....	71
<i>Kayumova Nargiza Mirziyatievna, Xo'jayeva Sharofat Olimjon qizi</i>	
Insult bilan xastalangan bemorlarda nutq buzilishlari korreksiyasiga yondashuvlar	74
<i>Maxkamova Laylo Majidovna</i>	
Milliy ta'lim tizimini yangilash va rivojlantirishning strategik modeli	77
<i>Mengliqulova Maftuna Abdullayevna</i>	
Yangi O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik va uning shaxs psixikasiga deterministik ta'siri	82
<i>Nishonova Oydinoy Mashrabjon qizi</i>	
Talabalarning mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etishda o'qituvchining fasilitatorlik roli	86
<i>Sariyeva E'tibor Matchanboyevna, Urazbayeva Sabohat Ortiqbayevna, Yuldasheva Gavxaroy O'rinboy qizi</i>	
Raqamli ta'lim platformalaridan foydalanishning bugungi holati: muammo va imkoniyatlari	90
<i>Suyarov Xurshid Baxriddinovich</i>	
Tarbiya darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetensiyasini shakllantirish metodikasi.....	95
<i>Toshpo'latova Guldona Tulqin qizi</i>	
Kreativ yondashuvni shakllantirishda o'qituvchining innovatsion faoliyatini shakllantirish metodikasi	98
<i>Usarova Marg'uba Nazar qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ nutq malakasini rivojlantirishning metodologik asoslari.....	102
<i>Vaisova Yodgora Sardorbek qizi</i>	
Destruktiv oilalarda shaxslararo munosabat psixologiyasi	106
<i>Sharafutdinova Xadichaxon Gulyamutdinovna</i>	



Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlarining axborot kompetensiyasini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	110
<i>Xalilayev Batirjon Taxirovich</i>	
O'quvchilarning individual ta'lim ehtiyojlarini aniqlash mezonlarining pedagogik va raqamli diagnostik asoslari	114
<i>Xalknazarova Aysuliw Maxsetbaevna</i>	
Klinik integratsiya asosida farmakologiya fanini o'qitish modelini ishlab chiqish	118
<i>Xasanboyeva Nafisaxon Abdullojonovna</i>	
Yurak glikozidlaridan zaharlanishni oldini olishni o'qitishning metodik-pedagogik asoslari	121
<i>Xoliqova Oyistaxon Yuldashevna</i>	
Oliy ta'lim tizimida raqamli transformatsiya sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning universal va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi	125
<i>Xurramov Anvar Jumanazarovich</i>	
Studying the Role of Magic Numbers and Nucleon Shells in Nuclear Structure	129
<i>Yakubova Shoxidaxon Qodirovna, Dehqonova Ohista Qosimjonovna</i>	
Методика адаптивного физического воспитания молодежи с интеллектуальными нарушениями посредством специализированных гимнастических упражнений.....	133
<i>Аслонова Гуллола Акрам кизи</i>	
Понятие эмоционально-оценочной лексики.....	137
<i>Каримбаев Ниетбай Шарипович, Усенова Гульзира Женгисбай кызы</i>	
Изучение русского языка с использованием цифровых платформ: потребности, проблемы и решения.....	140
<i>Умарова Дильфуза Маматкуловна</i>	



BOLALARNI MAKTAB TA'LIMIGA INTELLEKTUAL TAYYORLASH VA VITAGEN TAJRIBASINI RIVOJLANTIRISHGA METODIK YONDASHUVLAR

Abdullayeva Feruza Shavkatovna

Fan va texnologiyalar universiteti "Pedagogika" kafedrasi dotsent v.b.

Annotatsiya: Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarining maktabga tayyorlov guruhi bolalarini maktab ta'limiga intellektual tayyorlash hamda ularni kattalar hayot tarzi bilan tanishtirish jarayonida qo'llaniladigan ijtimoiy treninglar va metodik yondashuvlar yoritilgan. Ijtimoiy treninglar bolalarning intellektual, psixologik va vitagen tajribasini rivojlantirishda muhim pedagogik vosita sifatida tavsiflanadi. Shuningdek, muammoli vaziyatlar, sahnalashtirish va didaktik o'yinlar orqali bolalarning aqliy, axloqiy va estetik rivojlanishini ta'minlash masalalari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy trening, intellektual rivojlanish, psixologik rivojlanish, vitagen tajriba, aqliy tarbiya, axloqiy tarbiya, estetik tarbiya, muammoli vaziyat, sahnalashtirish, didaktik o'yin.

Abstract: The article examines social training and methodological approaches used for the intellectual preparation of children in the preparatory groups of preschool educational institutions for school education, as well as for introducing them to the adult lifestyle. Social training is analyzed as an effective pedagogical tool for developing children's intellectual, psychological, and vitagen experience. Particular attention is paid to the use of problem-based situations, dramatization techniques, and didactic games as means of fostering mental, moral, and aesthetic development.

Key words: social training, intellectual development, psychological development, vitagen experience, mental education, moral education, aesthetic education, problem-based situation, dramatization, didactic game.

Аннотация: В статье рассматриваются социальные тренинги и методические подходы, применяемые для интеллектуальной подготовки детей подготовительной группы дошкольных образовательных организаций к школьному обучению, а также для ознакомления их с образом жизни взрослых. Социальные тренинги анализируются как эффективное педагогическое средство развития интеллектуальных, психологических и витагенных компетенций детей. Особое внимание уделяется использованию проблемных ситуаций, элементов инсценировки и дидактических игр как факторов умственного, нравственного и эстетического развития.

Ключевые слова: социальный тренинг, интеллектуальное развитие, психологическое развитие, витагенный опыт, умственное воспитание, нравственное воспитание, эстетическое воспитание, проблемная ситуация, инсценировка, дидактическая игра.

KIRISH

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining maktabga tayyorlov guruhlarida bolalar bilan ijtimoiy treninglar o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Chunki bunday treninglar bolalarni turmush tarzimizda sodir bo'layotgan voqea-hodisalar orqali aqliy, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, bolalar ijtimoiy treninglar orqali maktab ta'limiga ham aqliy jihatdan tayyorgarlik ko'radilar. Bolaning maktabga aqliy tayyorgarligi umumiy tayyorgarlik ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, u muayyan bilimlar doirasi va zahirasiga ega bo'lish hamda asosiy qonuniyatlarni tushunishdan iboratdir. Bu jarayonda bola taqqoslashni, umumlashtirishni, mustaqil xulosa chiqarishni va tahlil qilishni o'rganishi zarur. Ijtimoiy treninglar bolaning aqliy rivojlanishi uchun muhim ahamiyat kasb etishi yaqqol ko'zga tashlanadi. Bu jarayon maktab uchun zarur bo'lgan minimum daraja hisoblanadi. Ko'pchilik ota-onalar va pedagoglarning fikriga ko'ra, intellektual tayyorgarlik bolada ma'lum ko'nikmalar, masalan, 20 yoki 100 gacha bo'lgan misollarni miyada yechish qobiliyatining mavjudligini nazarda tutmasligi kerak. Asosiy e'tibor bilish jarayonlari – xotira, diqqat va tafakkurning umumiy rivojlanishiga qaratiladi.

Yuqorida ko'rsatilgan rivojlanish jarayonlarining barchasi ijtimoiy treninglar jarayonida yanada takomilla-shadi.

“Sen nima qilgan bo'larding?” trening-o'yini uchun bolalarga muammoli vaziyatlar taqdim etiladi. Bolalar muammoli vaziyatlar bilan tanishtiriladi va pedagog ularni keltirilgan vaziyatdagi hodisalar hamda ishtirokchilarning ijobiy va salbiy xislatlariga doir fikr-mulohazalarini bildirishga undaydi.

- **1-muammoli vaziyat:** guruhda bolalar tarbiyachiga xonani tozalashda va gullarga suv quyishda yordam bermoqda, biroq bir bola o'zicha o'tirib kuzatib turibdi.
- **2-muammoli vaziyat:** bolalar mevalarni terib olishmoqda, bir qiz juda ko'p meva olganligi sababli ular qo'llariga zo'rg'a sig'moqda.
- **3-muammoli vaziyat:** bolalar bog'chasida sen bir o'yinchoqni o'ynamoqchi bo'lding, ammo eng yaqin do'sting ham aynan shu o'yinchoqni o'ynamoqchi.
- **4-muammoli vaziyat:** oldingga mehmonlar keldi, sen oshxonadan meva-chevalarni olib kelguningcha ular yangi mashinangni sindirib qo'yishdi.

Har bir muammoli vaziyatdan so'ng bolalarning munosabati so'raladi, javoblari tinglanadi va pedagog tomonidan vaziyat tahlil qilinib, yakuniy xulosa chiqariladi. Trening jarayonida bolalar vaziyatlarga yechim topish jarayonida o'z hayotiy tajribalarini, oila a'zolarining o'g'it va maslahatlarini esga olgan holda fikr bildiradilar. Natijada xotira, tafakkur va idrok rivojlanadi.

“Yo'qolgan qo'lqopcha” mashqi bolalarda mehribonlikni rivojlantirish va xudbinlikni bartaraf etishga qaratilgan. Qish faslida bolalar hovlida qorbo'ron o'ynab, qorbobo yasamoqdalar. Bir qiz qo'lqopini yo'qotib qo'yadi, qo'llari sovuq qotib, barmoqlari bo'ysunmay qoladi. U qo'llarini uqalab isitishga harakat qiladi, biroq qo'lqopsiz isitib bo'lmaydi. Buni ko'rgan bola: “Eh, Malika, qishda qo'lqopsiz yurib bo'ladimi? Mana, mening qo'lqopim bor”, – deb qo'lqopining birini beradi. Boshqa bola ham qo'lqopining birini yechib qizga beradi. Shundan so'ng hikoya to'xtatiladi va bolalarga qahramonlar rollarini ijro etish orqali voqeani turli variantlarda davom ettirish taklif etiladi. “Bunday vaziyatda ertak qahramonlari qanday yo'l tutgan bo'lar edi?” degan savol orqali bolalar mustaqil fikr yuritadilar. Bunday noma'lum yakunli vaziyatlarda bolalar muammoni kattalar ko'rsatmasisiz o'zlari hal etishga intiladilar hamda bir xil vaziyatni turli ijobiy xatti-harakatlar orqali yechish mumkinligini anglaydilar.

“Unutilgan zontik” mashqi bolalarda halollikni shakllantirishga qaratilgan. Taksiga bir yo'lovchi zontigi bilan o'tiradi va manzilni aytadi. Manzilga yetib kelgach, kira haqini to'lab tushib ketadi, biroq zontigini unutadi. Haydovchi bola zontikni ko'rib, yo'lovchini izlab pod'yezddagi kvartiralarni aylanadi va oxir-oqibat topib, zontigini qaytaradi. Yo'lovchi halolligi uchun minnatdorchilik bildiradi. Hikoya yakunida tarbiyachi bolalardan haydovchining xatti-harakatiga munosabatlarini so'raydi va muhokama asosida xulosa chiqaradi.

Asar qahramonlarini taqqoslash mashqida Buratino, Yalmog'iz, Bo'g'irsoq, Zumrad, Qimmat, Bo'ri kabi qahramonlarning xislatlari tahlil qilinadi. Bolalarga qahramonlarning qanday xislatlarga ega ekanligi, bu xislatlar qaysi xatti-harakatlarda namoyon bo'lishi, ularning o'zaro farqi haqida savollar beriladi. Masalan, Buratino Bo'g'irsoq o'rnida bo'lganida o'zini qanday tutgan bo'lardi, degan savol orqali tahliliy fikrlash rivojlantiriladi.


Sahnalashtirish jarayonida har bir bola o'ziga xos shaxs ekanligi hisobga olinadi. Sahnalashtirish hikoya yoki ertakni oddiy qayta namoyish etish emas, balki obrazni his qilish va ichki kechinmalarni ifodalash jarayonidir. Rollar oldindan yodlanmaydi, bolalar obrazni mustaqil talqin qiladilar. Bir bola haydovchi rolini chaqqon va shoshilinch tarzda ijro etsa, boshqasi xotirjamlik bilan harakat qilishi mumkin. Sahnalashtirishda barcha bolalarning qatnashishi ta'minlanadi. Agar asosiy rollar yetarli bo'lmasa, ular daraxt, o'simlik, shamol yoki uy rolini bajarish orqali ham ishtirok etishlari mumkin. Har bir ertak bir necha bor sahnalashtiriladi va har gal yangi talqinda namoyon bo'ladi. Muhokama jarayonida bolalardan o'z kechinmalari, kimning xatti-harakati yoqqani va qaysi rolni ijro etishni xohlashlari haqida so'raladi.

“O'zaro bir-birini tushunish mamlakati” psixotreningi muomala ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. Treningning maqsadi – muloqot ko'nikmalarini shakllantirish, ruhan himoyalanganlik hissini vujudga keltirish, empatiyani rivojlantirish hamda muomala madaniyatini mustahkamlashdir. Trening davomida bolaga nisbatan tanbeh yoki salbiy baho berilmaydi. Ishonch va do'stona muhit yaratiladi, bu esa bolaga o'z ichki dunyosini ochish va muammolarini erkin ifodalash imkonini beradi. Trening ijodiy faollik, izlanish, suhbatdosh bo'la olish va xulqni obyektivlashtirish tamoyillari asosida tashkil etiladi. Natijada bolalar o'z xatti-harakatlarini ongli ravishda boshqarishni o'rganadilar.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining maktabga tayyorlov guruhlarida ijtimoiy treninglar bilan bir qatorda bolalarning intellektual qobiliyatlarini rivojlantiruvchi o'yinlar ham o'tkazilishi lozim. Bu o'yinlar idrok, diqqat, tafakkur, xotira va ijtimoiy-hissiy jarayonlarni rivojlantirish orqali bolani maktabdagi o'quv va ijtimoiy jarayonlarga aqliy jihatdan tayyorlashga xizmat qiladi. “Juftini top” didaktik o'yini shular jumlasidandir. Unda stol ustiga bir tomoni rasimli, bir tomoni rasmsiz kartochkalar pastga qaratib qo'yiladi. Kartochkalarda shakl, rang yoki buyum rasmlari bo'ladi va ular juft-juft tasvirlangan bo'lishi kerak. Qatnashchi bola ikki kartochkani ochib ko'rsa-



tadi. Agar rasmlar bir xil bo'lsa, u predmetning xususiyatlarini aytadi; agar turlicha bo'lsa, kartochkalarni yopib joyiga qo'yadi. O'yin davomida bolalar rasmlarning joylashuvini eslab qolishga harakat qiladilar. O'yin yakunida eng ko'p kartochka to'plagan bola g'olib deb e'lon qilinadi.



1-rasm: Juft predmetlarni aniqlashga qaratilgan didaktik o'yin namunasi

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta'limiga intellektual tayyorlash masalasi yosh psixologiyasi va pedagogika fanlarida muhim yo'nalishlardan biri sifatida tadqiq etilgan. M. Dadaxo'jayeva, K. Murotmusayev va F. Abdullayevaning "Yosh psixologiyasi" asarida bolalarning bilish jarayonlari – diqqat, xotira, tafakkur va nutq rivojlanishining yoshga xos xususiyatlari ilmiy asosda yoritilgan hamda maktabga tayyorgarlikning psixologik mezonlari tahlil qilingan. Mualliflar intellektual tayyorgarlikni faqat bilim hajmi bilan emas, balki aqliy operatsiyalarning shakllanganlik darajasi bilan baholash zarurligini ta'kidlaydilar.

F. Abdullayeva "Bolalar psixologiyasi va psixodagnostikasi" nomli asarida maktabgacha yoshdagi bolalarning psixik rivojlanishini aniqlash usullari va diagnostik mezonlarini tizimli bayon etgan. Shuningdek, muallifning "Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga intellektual tayyorgarligini aniqlash metodlari va usullari" maqolasida maktabga tayyorgarlikni baholashning amaliy mexanizmlari, test va kuzatish metodlari asoslab berilgan. Bu tadqiqotlar intellektual tayyorgarlikni kompleks yondashuv asosida o'rganish zarurligini ko'rsatadi.

Vitagen yondashuv va emotsional-intellektual rivojlanish masalalari F. Abdullayeva va D. Rasulovning maktabga tayyorlov guruhi bolalarining aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishga oid tadqiqotlarida yoritilgan. Mualliflar ijtimoiy treninglar, muammoli vaziyatlar va didaktik o'yinlar orqali bolalarning hayotiy tajribaga tayangan holda fikr yuritish ko'nikmalarini shakllantirish mumkinligini asoslab berganlar. Ushbu ilmiy ishlarda intellektual rivojlanishning ijtimoiy-hissiy omillar bilan uzviy bog'liqligi ko'rsatilib, metodik yondashuvlarning samaradorligi amaliy misollar orqali dalillangan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda maktabgacha ta'lim tashkilotlarining maktabga tayyorlov guruhlarida bolalarni maktab ta'limiga intellektual tayyorlash va vitagen tajribasini rivojlantirish jarayoni empirik hamda nazariy usullar asosida o'rganildi. Ma'lumotlar pedagogik kuzatish, suhbat, diagnostik topshiriqlar, muammoli vaziyatli o'yinlar hamda didaktik mashg'ulotlar natijalarini tahlil qilish orqali to'plandi. Shuningdek, bolalarning diqqat, xotira va tafakkur darajasini aniqlash maqsadida psixodagnostik metodikalaridan foydalanildi. Olingan ma'lumotlar qiyosiy tahlil, tavsifiy-statistik umumlashtirish hamda sifat jihatidan interpretatsiya qilish usullari orqali qayta ishlanib, intellektual rivojlanish ko'rsatkichlaridagi o'zgarishlar aniqlashtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bolalarda diqqat, xotira va tafakkur rivojlanadi hamda jamoaviy ishlash ko'nikmalari mustahkamlanadi. Bundan tashqari, rasmlardagi predmetlarning xususiyatlarini ifodalash jarayonida bolalarga o'z tajriba va bilimlarini namoyon etish imkoniyati yaratiladi.

"Jenga boom" (didaktik–koordinatsion va jamoaviy o'yin).

Maqsad: bolalarda e'tibor, mantiqiy fikrlash, mayda motorika va muvozanatni saqlash, kuzatuvchanlik, mustaqil qaror qabul qilish hamda hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish, guruh bilan ishlash, navbat kutish va tartibni saqlash madaniyatini shakllantirish.

O'yin qoidasi:

- har bir bola navbati bilan bitta Jenga bo'lagini minoradan chiqaradi;



- chiqarilgan bo'lak minoraning ustiga ehtiyotkorlik bilan qo'yiladi;
- kim minorani qulatib yuborsa, unga "Boom!" deyiladi;
- o'yin sabr-toqat, muvozanat va e'tibor asosida olib boriladi.



2-rasm: "Jenga Boom" didaktik–koordinatsion o'yin namunasi

"Jenga boom" o'yini 1970-yil Lesli Skot tomonidan yaratilgan. Dastlab o'yin muallif tomonidan o'z farzandlari uchun ishlab chiqilgan bo'lib, kubiklarni yon tomonga surish orqali o'ynalgan. Keyinchalik Lesli Skot o'yinni murakkablashtirib, minoradan olingan kubiklarni uning ustiga qo'yish tamoyili asosida takomillashtirgan.

"Geo doska bilan shakllarni yasaymiz" (didaktik o'yin). Mazkur o'yin tasviriy san'at, matematika hamda maktabgacha ta'limda sensor rivojlanish mashg'ulotlarida keng qo'llaniladi. Shuningdek, inklyuziv guruhlarda ham samarali foydalanish mumkin.

Maqsad: bolalarning geometrik shakllar haqidagi bilimlarini mustahkamlash, qo'l barmoqlari harakati va mayda motorikani rivojlantirish, kuzatish, tafakkur hamda fazoviy tasavvurni shakllantirish.

O'yin qoidasi:

- tarbiyachi bolalarga geo doska va rezinkalarni tarqatadi;
- "Keling, doskamizda kvadrat shaklini hosil qilamiz", "Endi uni to'g'ri to'rtburchakka aylantiraylik", "Kim chiroyli uchburchak yasaydi?" kabi ko'rsatmalar beradi;
- har bir bola rezinkani mixlar orasiga tortib, shakl hosil qiladi;
- so'ng shakl nomini aytadi va bolalar birgalikda takrorlaydi;
- tarbiyachi "Bu shaklning nechta tomoni bor?", "Kvadrat va to'g'ri to'rtburchakning qanday farqi bor?" kabi savollar orqali bilimlarni mustahkamlaydi.



3-rasm: Geo doska yordamida geometrik shakllarni yasash jarayoni



XULOSA VA TAKLIFLAR

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining maktabga tayyorlov guruhlarida bolalarni maktab ta'limiga intellektual tayyorlash jarayoni tizimli, maqsadga yo'naltirilgan va metodik jihatdan asoslangan faoliyatni talab etadi. Tadqiqot mazmunidan kelib chiqib aytish mumkinki, ijtimoiy treninglar, muammoli vaziyatlar, sahnalashtirish usullari hamda didaktik o'yinlar bolalarning bilish jarayonlari – diqqat, xotira, tafakkur va tasavvurini rivojlantirishda samarali pedagogik vosita hisoblanadi. Shuningdek, mazkur metodik yondashuvlar orqali bolalarda vitagen tajriba, ya'ni hayotiy tajribaga tayangan holda fikr yuritish, vaziyatni tahlil qilish va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalari shakllanadi. Natijada bolalarning nafaqat aqliy, balki ijtimoiy-hissiy va axloqiy rivojlanishi ham ta'minlanadi. Bu esa ularning maktab muhitiga moslashuvini yengillashtiradi va o'quv faoliyatiga ongli yondashuvni shakllantiradi.

Takliflar:

1. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarining maktabga tayyorlov guruhlarida ijtimoiy trening va vitagen yondashuv elementlarini tizimli ravishda o'quv-tarbiyaviy jarayonga integratsiya qilish maqsadga muvofiqdir.
2. Intellektual tayyorgarlikni faqat bilim hajmi bilan emas, balki bilish jarayonlarining rivojlanish darajasi asosida baholash mezonlarini ishlab chiqish zarur.
3. Pedagoglar uchun ijtimoiy trening va sahnalashtirish metodikasiga oid metodik qo'llanmalar hamda amaliy tavsiyalarni takomillashtirish lozim.
4. Didaktik o'yinlar (masalan, muammoli vaziyatli o'yinlar, koordinatsion va mantiqiy o'yinlar)ni muntazam qo'llash orqali bolalarning mustaqil fikrlash va jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish tavsiya etiladi.
5. Ota-onalar bilan hamkorlikda bolalarning vitagen tajribasini boyitishga qaratilgan oilaviy mashg'ulotlar va treninglarni tashkil etish samarali natija beradi.

Mazkur takliflarni amaliyotga joriy etish maktabgacha yoshdagi bolalarning intellektual salohiyatini oshirish, hayotiy tajribaga asoslangan fikrlashni shakllantirish hamda ularni maktab ta'limiga puxta tayyorlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. M. Dadaxo'jayeva, K. Murotmusayev, F. Abdullayeva. "Yosh psixologiyasi". "Pages Print" nashriyoti, 2024-yil.
2. F. Abdullayeva. "Bolalar psixologiyasi va psixodagnostikasi". "Metodist" nashriyoti, 2025-yil.
3. F. Abdullayeva, D. Rasulova. "Maktabga tayyorlov guruhi bolalarining aqliy qobiliyatlarini rivojlantirish metodlari". "Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim jarayonida bolalarni emotsional-intellektual rivojlantirish: muammo va yechimlar" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Toshkent, 2025-yil, 22-oktabr.
4. F. Abdullayeva. "Maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga intellektual tayyorgarligini aniqlash metodlari va usullari". "Mu'allim ham uzluksiz bilimlendiriw". Ilmiy-metodik jurnal, 2025-yil, 5/3-son.
5. <https://ru.wikipedia.org/>

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №3(1)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.